

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

DOSTONOV O‘TAJON O‘KTAM O‘G‘LI

**ZAMONAVIY O‘ZBEK BADIY KINOSIDA
OPERATORLIK SAN‘ATINING YANGI TAMOYILLARI
(2000-2020-YILLAR)**

17.00.03 – Kino san‘ati. Televideniye

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA
FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of abstract of doctor of philosophy (PhD) dissertation

Dostonov Otajon O‘ktam o‘g‘li

“Zamonaviy o‘zbek badiiy kinosida operatorlik san’atining yangi tamoyillari
(2000-2020-yillar)”.....5

Достонов Отажон Уктам угли

Новые тенденции операторского искусства в современном узбекском
художественном кино (2000-2020 гг.).....19

Dostonov Otajon O‘ktam o‘g‘li

New principles of cameratory art in modern uzbek fiction cinema
(2000-2020 years).....37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....41

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.08/28.08.2020.San.121.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

DOSTONOV OTAJON O‘KTAM O‘G‘LI

**ZAMONAVIY O‘ZBEK BADIY KINOSIDA
OPERATORLIK SAN’ATINING YANGI TAMOYILLARI
(2000-2020 YILLAR)**

17.00.03 – Kino san’ati. Televideniye

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA
FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/San134 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Tojiboyeva Oltinoy Qosimovna**
san‘atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Qoraboyev Usmon Hosilovich**
falsafa fanlari doktori, professor

Ismailov Kamolitdin Saidaxmadovich
san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: O‘zR FA San‘atshunoslik instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD/28.08.2020.San18 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik kengashning 2024-yil “___” _____soat_dagi majlisda bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yalang‘och dahasi, 127-(a) uy.Tel.: (99871) 230-28-15, 230-28-02; <http://www.dsmi.uz>; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti kutubxonasida tanishish mumkin. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yalang‘och dahasi, 127-(a) uy. Tel.: (99871) 230-28-32. e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____kuni tarqatildi.(2024-yil__dagi № _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Yuldashev Ma’ruffjon Muhammadjonovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi.
filologiya fanlari doktori, professor

Mulladjanov Davlat Mavlanovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi.
san‘atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Umarov Abdusalom Adilovich
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi.
Falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tobora rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalar operatorlik san'atining jadal taraqqiy etishiga, sahnalashtiruvchi kinooperator fantaziyasidagi makon hamda turli qahramonlarni ekranda obrazli yaratishga qulay imkon yaratmoqda. Badiiy film mavzu va g'oyasi, syujet va kompozitsiyasi zamonaviy ifoda vositalari orqali tasviriy yechimda aks etadi. Badiiy kino ma'lum bir xalq tarixi, turmush tarzi, milliy madaniy merosi, qahramonlari bilan tanishtirish, dunyoqarashini rivojlantirishga xizmat qilib, operatoridan shaxsiy tajriba, hayotni anglash, idrok etish malakasini talab qiladi.

Jahon kinoshunosligida turli davlatlardagi kinooperatorlik uslubining shakllanishi, operatorlik san'ati tarixi va nazariyasi, rivojlanish jarayoni va muammolari, badiiy xususiyatlariga oid masalalar tadqiq etilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda qahramon portretini yaratish, badiiy makon obrazi, plastik tasvir, tasviriy yechim, operatorlik uslublari, ifoda vositalari, turli zamonaviy kompyuter grafikasi texnologiyalarining o'ziga xosligi va imkoniyatlari, yorug'lik va rang rivoji kabi masalalarga e'tibor qaratilmoqda. Badiiy filmlarning kommunikativ va integrativ xususiyatlari, janr-uslubiy tizimi, obrazlar semantikasi kabi mavzularda tadqiqot ishlarini bajarish zarurligi ko'rinmoqda.

Yurtimizda so'nggi yillarda milliy kinematografiyaning jamiyat hayotidagi roli tobora kengayib bormoqda. Jahon kinoindustriyasiga dadil kirib borishda badiiy va texnik imkoniyatlar darajasini oshirish, mustahkamlash, rivojlantirish ishlari jadallashmoqda. "Mamlakatimizda keyingi paytda barcha sohalar qatori kinematografiya tizimi rivojiga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda. Ijod erkinligi, sog'lom ijodiy raqobat, xususiy mulk daxlsizligi kabi demokratik tamoyillar ushbu sohaga ham dadil joriy etilmoqda. Kinostudiyalarning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, ularga imtiyoz va preferensiyalar berish, yuksak didli tomoshabinlarning talablariga javob beradigan badiiy yetuk kartinalar yaratish, jamiyatimizda kino san'atini keng ommalashtirish borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda"¹. Bu borada kinooperatorlar yosh avlodining yaratayotgan badiiy filmlaridagi vositalar, uslubiy izlanishlar, ijodiy tajribalar qolaversa, yangi tamoyillarning paydo bo'lish jarayonlarini ilmiy o'rganish dolzarbahamiyat kasb

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil 28-sentabr.

etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158- son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida, 2020-yil 26-maydagi PF-6000- son “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 7-apreldagi PF-6202-son “Kino san’ati va sanoatini yangi bosqichga olib chiqish, sohani davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlash. tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 7- avgustdagi PQ-3176-son “Milliy kinematografiyani yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 7-apreldagi PQ-5060-son “Kinematografiya sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish hamda soha vakillarining ijodiy faoliyati uchun munosib sharoit yaratish to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 19 avgustdagi 695-son “Kinematografiya sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kino san’ati tarixi va nazariyasiga doir tadqiqotlar olib borgan Yevropa va Amerika olimlari J.Sadul², B.Balash³, A.Bazen⁴ hamda rus olimlari va kinooperatorlaridan R.Ilin⁵, Y.Goldovskiy⁶, M.Goldovskaya⁷, V.Jeleznyankov⁸, V.Nilsen⁹, A.Golovnya¹⁰ ilmiy-nazariy, ijodiy ishlarida kino badiiy estetikasi yaratilishida kinooperator va kinotexnikaning tutgan o‘rni,

²Садуль Ж. Всеобщая история кино. (в 6-ти томах) — М.: Искусство, 1958 – 1963.

³Балаш Б. Кино: Становление и сущность нового искусства. Пер.с нем. — М.: Прогресс, 1968. – С.328.

⁴Базен А. Что такое кино? Сборник статей. Пер.с.франц. — М.: Искусство, 1972. – С. 382.

⁵Ильин Р. Мастерство оператора кино и телевидения. – М.:ВГИК, 1985. – С. 56.

⁶Голдовский Е. Основы кинотехники. – М.: Искусство, 1965. – С. 636.

⁷Голдовская М. Десять операторских биографий. Сб. ст. о А.Левицком, Э.Тиссэ, А.Головне, А.Москвине, Д.Демуцком, М.Магидсоне, Б.Волчке, А.Галперине, Д.Косматове, С.Урусевском. / Сост. — М.: Искусство, 1978. – С. 207.

⁸Железняков В. Анатомия зрительного образа. – М.: Союз кинематографистов РФ. 2012. – С. 114.

⁹Нилсен В. “Изобразительное построение фильма”– М.: Искусство, 1936. – С. 226.

¹⁰Головня А. Мастерство кинооператора. – М.: Искусство,1965. – С. 255.

roli, tasviriy yechim yaratish mahorati, yetakchi ijodkorlar faoliyati kabi qator nazariy-amaliy masalalar tadqiq etilgan. Tasvirning kino badiiy tilini boyitish, film mohiyatini teran tadqiq etishdagi ahamiyati; tasviriy yechimda ijodkor mahorati hamda asarga munosabat aks etishi; kinooperatorlar uslubiy o'ziga xosligining namoyon bo'lishi masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'zbek kinoshunoslari J.Teshaboyev¹¹, H.Akbarov¹², N.Karimova¹³, H.Abulqosimova¹⁴, O.Kopadze, S.Haytmatova tadqiqotlarida kino tarixi va nazariyasi, taraqqiyot yo'li, rejissura, kinodramaturgiya va ekranlashtirish masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan va tegishli to'xtamlarga kelingan. Kinooperatorlar M.Qayumov¹⁵, A.Ismoilov¹⁶, H.Fayziyev¹⁷larning ilmiy va ilmiy- ommabop kitoblarida kadr kompozitsiyasi, badiiy tili, usul va uslublarning o'ziga xosligi borasidagi fikr-mulohazalar mavjud. O'zbekiston operatorlik san'ati yo'nalishida qilingan dastlabki dissertatsiya bo'lmish I.Meliqo'ziyevning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan "O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati"¹⁸ mavzusidagi dissertatsiyasi o'zbek badiiy kinosida kinooperatorlik mahoratining rivojlanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari xususiyati, ijodiy maktabning o'ziga xos jihatlari tadqiq qilgan.

K.Ismailovning san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan "Zamonaviy o'zbek hujjatli kinosida film-portret janri"¹⁹ mavzusidagi tadqiqot ishi portret filmlar, badiiy obrazlar, uslub va talqinlar, tasvir va ovoz komponentlarini tadqiq qilishga qaratilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarda ko'tarilgan masalalar ilmiy-nazariy jihatdan batafsil qarab chiqilganiga qaramay, o'zbek badiiy kinosida kinooperatorlik san'ati zamonaviy tamoyillari bir butun, yaxlit holda, alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmadi.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston davlatsan'at va madaniyat instituti kino san'ati, televideniye ixtisosligi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi

¹¹Тешабаев Д. Узбекское кино: традиции, новаторство. – Ташкент.: Литература искусство им. Г.Гуляма, 1979. – С. 184.

¹²Акбаров Х. Зрелость. – Ташкент.: Литература искусство им. Г.Гуляма, 1971. – С.253.

¹³Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. Ташкент: San'at, 2016. – С.216.

¹⁴Абул-Касымова Х. Рождение узбекского кино. – Ташкент.: Фан, 1965. – С.123. Абул-Касымова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. Литература искусство им. Г.Гуляма, 1985. – С.288.

¹⁵Қаюмов М. Жизнь моя – кинематограф. – Ташкент.: изд. Г.Гуляма, 1982. – С.286.

¹⁶Исмаилов А. Кинооператорское мастерство. – Ташкент: УзДСМИ, 2004. – С.420.

¹⁷Fayziev H. Ovozsi kinematografdagi operatorlik san'ati tarixidan. – Toshkent: UzDSMI, 2008. – 128b.

¹⁸I.Meliqo'ziyev. O'zbek badiiy filmlarida kinooperatorlik mahorati. Avtoref.san.PhD.17.00.03. – T: 2022.35b.

¹⁹K.Ismailov. Zamonaviy o'zbek hujjatli kinosida film-portret janri. Avtoref.san.PhD.17.00.03. – T: 2024.56b.

doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Zamonaviy o'zbek kinosida kinooperatorlik san'atining yangi tamoyillarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo'yildi:

kinooperatorlik san'atini ilmiy tahlil etilishi masalalarini o'rganish; o'zbek kinooperatorlik san'atining badiiy xususiyatlarini aniqlash;

badiiy kinoda ifoda vositalari va ularning tasviriy yechimdagio'rnini asoslash;

2000-yillar o'zbek kinooperatorligining rivojlanish yo'li, badiiy jarayonlarini tahlil qilish;

yosh kinooperatorlar ijodida zamonaviy tamoyillarning namoyon bo'lishi hodisasini o'rganish.

Tadqiqot obyektini 2000-yillarda kinooperatorlar tomonidan suratgaolingan badiiy filmlar tashkil etadi.

Tadqiqot predmetini kinooperatorlik ishlaridagi zamonaviy texnik-texnologik, badiiy ifoda vositalari, tasviriy yechimga yondashuvdagi individual munosabat masalalari tashkil etdi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada retrospektiv, tizimlilik, solishtirma-qiyosiy tahlil, nazariy mushohada, mantiqiy-eksperimental, induksiya, deduksiya usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek kinooperatorligi yangi tamoyillari mazmunida badiiy filmlardagi tasviriy talqin, rakurs va perspektivali birlik, obyektivdagi imkoniyatlar, yorug'lik va soya kabi voqelikning badiiy, ifodaviy, tasviriy vositalari, ijodkor mahorati hamda asarga munosabat aks etishi, uslubiy o'ziga xosligining namoyon bo'lishida o'zlikni anglash tamoyili takomillashgani dalillangan;

tabiiy va sun'iy yoritish badiiy-estetik mezonlardagi interyerning kunduzda tun effekti kabi vositalar rivojlangani; tasvir emotsional ta'sirchanligi va hissiy ekspressivligini oshirishda *Rembrandcha* yoritishga asoslangani isbotlab berilgan;

havaskorlik yondashuvlar predmetning aniqlik shakli, nur va soyaning emotsional aksenti, obrazlilik, kadr kompozitsiyasi hamda mezansena qonuniyati, aktyor portreti kabi kinooperatorlik san'ati yetakchi omillariga bir yoqlama yondashuvi bilan moddiy tejamkorlik vositasi sifatida qaralganligi aniqlangan;

o‘zbek kinooperatorlik san‘atiga jahon kino san‘atining modellashtirish, motion capture, performance capture, xromakey, kombinatsiyali tasvirga olish, match move vizual effektlar olib kirilishi, kino badiiy tilida hayrat tuyg‘usi, fantastik tasavvurni ifodalash, g‘ayrioddiy sarguzashtlarni aks ettirish kabi *kompozitsion muvozanatni* rivojlantirgani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yosh kinooperatorlar ijodidagi badiiy jarayonni o‘rganish orqali muayyan filmlar misolida yangi tamoyillar xususiyatlari aniqlangan;

tahliliy natijalar badiiy jarayonida, to‘liq va qisqa metrajli filmlar voqeligi tasviriy yechimini effektlar, CGI grafika ifoda vositalari ishlab chiqarishga yordam bergan;

o‘zbek badiiy filmlarining tasviriy ifoda vositalari, yorug‘lik (день под ночью) orqali tasviriy yechimini o‘rganish natijasida chiqarilgan ilmiy xulosalar zamonaviy kinoning yangi tamoyillarini kashf qilinishiga xizmat qilgan;

sohaga ixtisoslashtirilgan oliy ta‘lim muassasalarining badiiy ta‘lim jarayonidabir kadrlari, subyektiv, qo‘lda suratga olish kabi usullarini o‘rgatishga sabab bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, kinoshunoslikning ilmiy-metodologik yondashuvlari qo‘llanilgani, ishlab chiqilgan takliflar va xulosalarning respublika hamda xalqaro miqyosidagi ilmiy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tganligi, ilmiy natijalarning respublika va nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilganligi, nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, arxiv materiallari va kinooperatorlar bilan qilingan intervyu-suhbatlar kabi birlamchi manbalarga asoslangani, ilmiy-amaliy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yaratilgan filmlar tahlili, sahnalashtiruvchi operatorlar izlanishlari, kino san‘ati tarixi, kinooperatorlik mahorati, operatorlik ishi nazariyasi va fotokompozitsiya fanlarini o‘qitishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston badiiy filmlari bo‘yicha olib boriladigan istiqboldagi tadqiqotlarda, darslik, o‘quv qo‘llanma va turli uslubiy ko‘rsatmalar yaratishda foydalanish, kinooperatorlik san‘ati rivojidagi yutuqlar, muammolar va imkoniyatlarni o‘rganish ishiga yangi ma‘lumotlar olib kirish, badiiy filmlarni zamonaviy tasviriy yechim uslublari bilan boyitish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy o‘zbek kinosida operatorlik san’atining yangi tamoyillari shakllanishi, rivojlanishi, xususiyatlarini ochib berish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek kinooperatorligi yangi tamoyillari mazmunida badiiy filmlardagi tasviriy talqin, rakurs va perspektivali birlik, obyektivdagi imkoniyatlar, yorug‘lik va soya kabi voqelikning badiiy, ifodaviy, tasviriy vositalari, ijodkor mahorati hamda asarga munosabat aks etishi, uslubiy o‘ziga xosligining namoyon bo‘lishida o‘zlikni anglash tamoyili takomillashgani dalillangan natijalardan O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tasarrufidagi O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda kollejarida ta’lim faoliyatini yanada takomillashtirish ilmiy-nazariy malaka talablari, o‘quv rejalari, namunaviy o‘quv fan dasturlari, darslik, o‘quv qo‘llanmalari yaratishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining 2024-yil 27-iyundagi 02-11-17-2165-son ma’lumotnomasi) Natijada soha bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning kinooperatorlik san’atining paydo bo‘lishi, milliy kinodagi zamonaviy jarayon, sahnalashtiruvchi operator ijodida hamda zamonaviy texnologiyalar asosida film yaratishga doir tushuncha va tasavvurlarini yanada kengaytirishga erishilgan;

o‘zbek kinooperatorlik san’atiga jahon kino san’atining modellashtirish, motion capture, performance capture, xromakey, kombinatsiyali tasvirga olish, match move vizual effektlar olib kirilishi, kino badiiy tilida hayrat tuyg‘usi, fantastik tasavvurni ifodalash, g‘ayrioddiy sarguzashtlarni aks ettirish kabi *kompozitsion muvozanatni* rivojlantirgani dalillanganligi, tabiiy va sun’iy yoritish badiiy-estetik mezonlardagi interyerning kunduzda tun effekti kabi vositalar rivojlangani; tasvir emotsional ta’sirchanligi va hissiy ekspressivligini oshirishda *Rembrandcha* yoritishga asoslangani isbotlab berilganligi asosidagi takliflar O‘zbekiston Kinematografiya agentligining kinostudiyalari ijodiy izlanishlarida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Kinematografiya agentligining 2024 yil 21 iyundagi 01- 05/09-1200- son ma’lumotnomasi). Natijada yosh operatorlik ijodida badiiy tasviriy vositalar borasida keng bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va uni ijodda qo‘llash imkoniyatlari kengaytirilgan;

havaskorlik yondashuvlar predmetning aniqlik shakli, nur va soyaning emotsional aksenti, obrazlilik, kadr kompozitsiyasi hamda mezansena qonuniyati, aktyor portreti kabi kinooperatorlik san’ati yetakchi omillariga bir yoqlama yondashuv bilan moddiy tejamkorlik vositasi sifatida qaralganligi aniqlanganligidan

O'zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasi Kinooperatorlik gildiyasida foydalanilgan (O'zbekiston Kinoarboblari ijodiy uyushmasining 2024-yil 20-iyundagi 027-son ma'lumotnomasi). Natijada yosh operatorlar ijodida badiiy ko'nikmalarni takomillashtirish va tasvirga olish madaniyatini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan. Shu jumladan, OAK tasarrufidagi jurnallarda 5ta (shundan 2ta xorijiy) ilmiy maqola e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning zamonaviy san'atshunoslik rivojidadagi dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning tuzilishi va aprobatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kinooperatorlik san'ati tamoyillarini o'rganishning ilmiy-nazariy aspektlari”** deb nomlangan birinchi bobining dastlabki fasli **kinooperatorlik san'atining o'ziga xosligini o'rganish tarixiga** bag'ishlangan. Kasbning mohiyati, shakllanish va qonuniyatlar, rivojlanish davri, uning xususiyatlarini o'rganish kino san'ati ixtisosligida muhim o'rin egalladi. Jahon, rus va milliy kinooperatorlik san'atida kadr va kompozitsiya, nur va soya, rang, kamera harakati, kadr chuqurligi va perspektiva, ritm va montaj kabi tasvir badiiy tilini yaratish vositalari tadqiq qilindi.

J.Sadul “Всеобщая история кино” kitobida dunyo mamlakatlarida kino san'ati rivojlanishini bir vaqtning o'zida ko'rib chiqadi. Har bir jildi tarixiy jarayonning barcha qarama-qarshiliklari, munosabatlari va o'zaro ta'sirlarini aks ettiradi. Jumladan, birinchi bobda harakatlanuvchi fotografiya va kino kameraning tug'ilishini o'rganadi. U texnik imkoniyatlar xronikasi haqida quyidagi fikrlarni keltiradi, “Plato va Shtampfer poydevor qo'ydi, Meybridj birinchi fotosuratlarini oldi, Mare birinchi kamerani yaratdi. Reyno harakatlanuvchi chizmalarning birinchi tasvirlarini amalga oshirdi. Edison o'nlab ixtirolarni ekranga loyihalashtirib, birinchi suratlar jamlanmasini chiqardi. Lyumer sinematograf bilan eng yaxshi natija qildi. Biroz vaqt o'tgach Meles, teatr vositalarini filmga moslashtirish, kinoni ilmiy yangilikdan haqiqiy tomoshaga aylantirdi”²⁰. Besh tomlik tadqiqot ilk bor kinematograf taraqqiyoti va uning kelajagi masalalari o'rganilishi, uning rivoji texnik – texnologik omillar bilan bog'liq ekanligini ochib berganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Kinooperatorlik uslublari haqida ilk bor kinooperator-pedagog V.Nilsen tadqiqot olib bordi. U kinokadrni qurish, kompozitsiya elementlari, tasvirning yorug'ligi va tonalligi, filmning tasviriy talqini, ijodiy uslub va usulni o'rganish mahoratini tadqiq etdi. Mazkur qo'llanma tadqiqot xarakteri va yetakchi masalalarga

²⁰Садуль Ж.Всеобщаяистория кино. Том 1 — М.: Искусство, 1958. - с. 67

e'tibor qaratilganligiga ko'ra hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

H.Fayziyevning "Ovozsiz kinematografiyadagi operatorlik san'ati tarixidan"²¹ nomli o'quv qo'llanmasi kinooperator faoliyatining qator masalalarini o'rganishda ahamiyatlidir. Ushbu qo'llanmada muallif ovozsiz kinematografiyada operatorlik san'ati vujudga kelishining muhtasari ocherkini yaratishga muvaffaq bo'lgan. Mazkur kitob ovozsiz kinematografidagi badiiy jihatlar bilan bog'liq bo'lsa-da, kinoning keyingi davridagi operatorlik xususiyatlari uchun ham diqqatga molik qarashlarni o'rta tashlaydi. Kinooperatorlik san'ati kinotasvirning o'ziga xos tilini bilish, badiiy obrazni "ko'rish" ustida tinimsiz mehnat va izlanish milliy uslub taraqqiy etishida asosiy mezon sifatida qaraydi.

Ushbu bobning ikkinchi faslida **o'zbek kinooperatorlik san'atining o'ziga xosligi** o'rganiladi. O'zbek kinooperatorligida syujet, montaj kompozitsiyasi sxemasini kadrda ifodalash borasida o'ziga xos an'ana mavjud. Bu an'ana D.Demutskiy, M.Krasnyaskiy, A.Pann, H.Fayziyev, D.Fatxullin, A.Ismailov, R.Ibragimovlar ishida shakllangan. So'nggi yillar zamonaviy kinooperatorlik izlanishlari mazkur an'analarni yangi tamoyillar bilan boyitib bormoqda.

90-yillarning ikkinchi yarmiga kelib fotografik realizmni taqozo etgan analog texnikalar o'rniga operatorga katta imkoniyat beruvchi raqamli texnika kirib keldi. "Abdullajon" (oper. T.Mansurov), "Kammi" (oper. H.Hasanov), "Buyuk Amir Temur" (oper. R.Ibragimov), "Kichkina tabib" (oper. A.Ismoilov) "Chimildiq" (oper. H.Fayziyev) kabi yangicha tasviriy yechimlarga boy filmlar yuzaga keldi.

"Kammi" filmida qo'llanilgan bir kadrli usul haqida postanovkachi operator H.Hasanov shunday deydi: "Kamera Arifleks 35 BL siniy varatal 10 talik transfokatorli obyektiv kran strela relsdan foydalanilgan. Voqea maxsus dekoratsiyada suratga olingan. Rejissyor bilan kelishib birinchi, ikkinchi va hokazo kadrlar raskadrovka qilingan. Rejissyor mezanssenasini qurgandan keyin, har bir kadrda operatorlik mezankadrini joylashtirdim. Qachon, qayerdan aktyor kadrda kirishi, yirik, o'rta, umumiy planlar, kamera qaysi qahramon bilan ketishi, tashqariga chiqib oxiri to'xtashi raskadrovkasini chizib olganmiz"²². "Kammi" filmi orqali H.Hasanov bir kadrli usuli, yoritish san'ati orqali dramaturgiyani hosil qilish mahoratini ko'rsatib, drama janrida operator yondashuvini alohida ta'kid etadi. Ushbu badiiy ifoda vositalari operatorlik an'analarni yanada rivojlantirib, kelgusi

²¹Fayziyev H. Ovozsiz kinematografidagi operatorlik san'ati tarixidan. – Toshkent: UzDSMI, 2008. – 128b.

²²Muallifning H.Hasanov bilan suhbatidan. Toshkent. 2022-yil 23-fevral.

yangi tamoyillarga tayanch bo‘lib xizmat qildi.

Ifoda vositalarining tasviriy obraz yaratishdagi o‘rniga ko‘ra T.Mansurovning multiekspozitsiya, zoom linzalar (transfakator), stop-frame, rejimli syomka, vaqt birligi elementlari sifatning oshishiga ta’sir qildi. H.Xasanov tasvirda fikrni aks ettirishning badiiy vazifasini drama janriga yondoshuv, bir kadrli suratga olish usuli, murakkab operatorlik mezasnsenasi, dekoratsiyada yorug‘likni qo‘llash, greyfer mexanizmlil Arri kamerada tasvir yaratish orqali amalga oshirdi. R.Ibragimov ijodida tasvirning tarkibiy qismlarini suv ichida tasvirga olish, yorug‘lik (kunduzdatun efekti, natura yoritish, rejimli yoritish), uzoq umumiy plan, kinokompozitsiya, ekshn operator (ommaviy sahna, jang dinamikasi) kabi vositalar yordamida namoyon bo‘lishi yetakchilik qildi.

A.Ismailov rakurs (suratga olish nuqtasi), nur va soyada qayg‘u, transfokator, planlar, portretni qurish, H.Fayziev milliy kolorit detallari tasviriy yechimda, kadr kompozitsiyasi to‘ldirilishi, epizod yaratilishidagi yondashuv, epizod metodik kompozitsiyasini ishlanishi kabi ifoda vasitalari kino badiiy tilini boyitdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonaviy kinooperatorlik san’atining rivojlanish masalalari”** deb ataladi. Uning **o‘zbek kinooperatorligining so‘nggi yillardagi badiiy jarayonlari** faslida operatorlarda film ssenariysi maqsadini tarkibiy qismlarga ajratish, materiallarni tahlil qilish jarayonida aniq obraz va kartinalar haqida asosiy tasavvurlar tug‘ilishi o‘rganiladi.

2010-yillarda suratga olingan **“Dilhiroj”** (oper. H.Fayziyev 2000-yil) badiiy filmidagi Rembrandcha yoritishning kayfiyat yaratish, qahramonlar shaxsiyatini aks ettirish, hissiy jihatdan muhim sahnalar ta’sirini kuchaytirish, **“Erkak”** (oper. H.Fayziyev 2004-yil) badiiy filmida esa ushbu usulning yoritish maftunkor jihatlari, hissiy reaksiyalari, janr xususiyatlariga mosligi kabi jihatlarga e’tibor qaratilgan. **“Vatan”** (oper. A.Ismoilov 2005-yil) badiiy filmida Karavadjo tasviriy yechimi, yoritish usullari, ranglarning qo‘llanilishi, kadr kompozitsiyasidagi predmetlar joylashuvi, **“Chashma”** (oper. A.G‘aniyev 2006-yil) badiiy filmidagi Kodak, Fuji kabi kinoplyonkalarining raqamli videoga nusxa ko‘chirish, yorug‘lik sezgirligi, rang harorati, o‘lchamidagi qulayliklar badiiy ifoda vositalari ustida izlanishga turtki bo‘ldi. Bular haqidagi masalalar mohiyati tahliliy asosda dissertatsiyada keng ravishda ochib berilgan.

Bobning ikkinchi fasli **2000-yillar o‘zbek kinooperatorligining rivojlanish yo‘li** deb nomlanadi. Bu davrga kelib tasviriy yechim yaratishda yetakchi

tamoyillardan biriga aylangan kinoplyonka imkoniyatlaridan ijodiy vosita sifatida izlanishlar o'rganilgan.

“O'tov” (oper. A.Arziqulov 2007-yil) badiiy filmida operator va kamera birligi, yovvoyi zerno noyob jozibasi, estetikasi orqali film g'oyasini ifodalanganligi, “O'n sakkizinchi kvadrat” (oper. N.G'ulomov 2007-yil) dinamik kadr, jang sahnalari tasviriy yechimi, “Shabnam” (oper. R.Murodov 2008-yil) yumshoq yorug'lik, aktyorlarning joylashish tartibi va harakat yo'nalishlarini belgilash, kadr ichi montaj kabi ifoda vositalar orqali qahramonlar obraziningyanada ta'sirchan bo'lishiga omil bo'lgan.

O'zbek kinosiga sanoatning suratga olish, yorug'lik manbayining yetmish-sakson foizga kamaytirilishi, narxi baland kinoplyonkadagi cheklanmagan piksel o'rnini videokameraning HD, Full HD kabi raqamli formatlarida suratga olishdagi tejamkorlik bilan kirib kelishi, oddiy tomosha voqealarning suratga olinishi, uning badiiy kino turiga kirishi kuchaydi. Buning ortidan suratga olish texnikalaridan foydalanishdagi ayrim kamchiliklar, kadr plastikasi umumiyligidagi nuqsonlar, aktyorlar noprofessionalligi kabi vizuallashtirish tarkibiy qismlariga “Sarvinoz” (oper. D.Nodirov 2004-yil), “Bo'rilar” (oper. B.Shametov 2007-yil) kabi badiiy filmlarda ko'plab kamchiliklarga yo'l qo'yilganligiga e'tibor qaratiladi.

Shunday bo'lsa-da, bu kamchiliklar kelgusi 2020-yillarda syujetga munosabatini tasviriy ifoda qilish mas'uliyati kuchayishiga sabab bo'ldi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Yangi tamoyillarning shakllanishida kino san'ati va sanoati o'rtasidagi munosabatlar”** deb nomlanib, birinchi faslida **Tasviriy yechim takomilining badiiy xususiyatlari** tadqiq etiladi.

Kinoda tasviriy yechim yetakchi o'rinda turadi. Tasviriy yechim deganda operatorning asarga munosib yondashuv topish shakli tushuniladi. Bu shakl uning ruhiyati, ijodiy fantaziyasi, bilimi, tafakkuri mahsulidir. Tasviriy yechim vositasida adabiy asarning turli xil uslublardagi vizual shakli yaratiladi.

Adabiyot va kino munosabatlari takomillashib borar ekan, fikrning kinematografik shakli, qahramon va tasvir kompozitsiyasi birbutunligi, inson ichki ruhiyatini badiiy vositalar yordamida ko'rsatishda yangicha yondashuvlar kuzatildi. Masalan, Erkin A'zam kinoqissasi asosida suratga olingan “Parizod” (oper. A.Arziqulov 2012-yil) badiiy filmi. Adabiy asar asosida kinossenariy yaratishda obrazlilik vizual ifodaga ko'chib, qaytadan kashf etiladi. Qahramon portretini yaratishda uning tashqi ko'rinishi, ichki dunyosini tasvirlash uchun aniq materialga

ega bo‘lish muhim. Pari portretini yaratishda uning g‘oyaviy-badiiy talqini oldinga chiqib, real va xayoliy qahramonga xos plastik shakllar yorug‘lik varanglarda aks etdi. Pari borgan obyektlarda go‘zallikni qahramonlar qarashlari bilan xuddi qisqa metrajli film ko‘rinishida aks etishi, A.Arziqulov tomonidan vizual vazifalarni obyekt egasi kuzatuvi, xarakteri bo‘yicha ifodalash, yorug‘lik va rang orqali obraz yaratish film ko‘rimsililigini oshirgan.

Kino ijodkorlar fikrlari, tasavvurlarida mavjud bo‘lgan olamlar va hodisalarni tiklash, ifoda qilish nuqtayi nazaridan mocha pro, cleanup, smoke, plugin, rotoscoping va boshqa maxsus effektlar imkoniyatidan foydalanish muhim edi. Bu orqali badiiy filmlarda virtual yoki real makondagi hayajon va dahshat, qayg‘u va quvonch tuyg‘usini boshdan kechirish hissi kuchaytiriladi. Jumladan, maxsus effektlar “Sehrli qalpoqcha” (oper. I.Lutfullayev 2012-yil), “Mening do‘stim jin” (oper. J.Ibragimov 2013-yil), “Oy qiz ertagi” (oper. D.Turdiboyev 2016-yil) kabi ertak filmlar badiiy estetikani yaratish vositasi sifatida foydalanildi. Bunda effektlarning yorug‘lik va tasvir mutanosibliqidagi o‘rni va ro‘lidan foydalanishda o‘zaro muvofiqlikning muhim sharti anglashildi.

Bobning ikkinchi faslida **yosh operatorlar ijodidagi vorisiylik va innovatsiya masalalari** tahlilga tortilgan. 2015-yillar o‘rtalariga kelib, yosh operatorlar ijodida texnik imkoniyatlarni yangi badiiy jarayonlarni yaratish vositasi sifatida qo‘llash harakatlari o‘rganilgan.

Badiiy kino tasviriy yechimini yaratish borasidagi izlanishlarga quyidagi filmlar misolida e‘tibor qaratilgan:

1. Reportajlar va badiiy dasturlarni suratga olishga mo‘ljallangan *qo‘lda suratga olish* usulidan foydalanilgan “Quduq” (oper. U.Malikov 2014-yil) badiiy filmi. Mazkur usul tomoshabinni ekranda sodir bo‘layotgan voqealarga ruhan yaqinlashtiradi, jarayonni yonma-yon, o‘z ko‘zi bilan kuzatishga majbur qiladi. Kamerani qo‘lda suratga olish ifodali kinematik effekt bo‘lib, undan ehtiyotkorlik va did bilan foydalanish talab etiladi, aks holda ko‘zlangan maqsadga erishibbo‘lmaydi.

2. *Subyektiv kamera usulida* suratga olingan “Ma’suma” (oper. I.Lutfullayev 2016-yil) badiiy filmi. Ushbu usuldan yangi tajribalarga boy bo‘lgan bu davrda foydalanish ko‘p uchraydi. Odatdagi usuldan farqli bo‘lgan bu qiziqarli kinematik texnikada voqea birinchi shaxs nigohidan ko‘rsatiladi va tomoshabin kadr ichi harakatiga jalb qilinadi. Kinoda bu usul POV (Point of view – nuqtayi nazar) deb ham nomlanadi.

3. *Bir kadrlilik usulini* qo‘llagan holda kadr ichi montajini qurish “Issiq non” (oper. J.Ibragimov 2018-yil) badiiy filmi ahamiyatli bo‘lib, unda nihoyatda kam uchraydigan tasviriy vositadan foydalanilgan. An’anaviy tasviriy yechimga ko‘ra qahramon portretida uning ruhiyati va ichki kechinmasini yirik planlarda aks ettirish o‘ziga xos stereotipga aylangan edi. Unda statik fon fokussizligi, kontur va chizuvchi yorug‘liklar o‘tkirliigi, uzoq masofali ob’ektiv, nigohlarni alohida chiroqlar bilan ta’kidlash orqali portret ifodalanib, ruhiy kechinmalar ta’sir kuchini oshirishga erishilgan. operator J.Ibragimov ushbu filmda qahramon portretini yaratishda yangi badiiy-estetik shaklni topganligi ahamiyatlidir.

Xulosa

Zamonaviy o‘zbek kinosida operatorlik san’atining yangi tamoyillarini (2000-2020-yillar) o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1.Yevropa, Amerika hamda rus olimlari tomonidan kino san’ati tarixi va nazariyasiga doir ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Kino badiiy estetikasi yaratilishida kinooperator va kinotexnikaning tutgan o‘rni, roli, tasviriy yechim yaratish mahorati, yetakchi ijodkorlar faoliyati kabi qator nazariy-amaliy masalalar tadqiq etilgan. Bu boradagi kitoblar, monografiyalar, dissertatsiyalarda tasvirning kino badiiy tilini boyitish, film mohiyatini teran tadqiq etishdagi ahamiyati; tasviriy yechimda ijodkor mahorati hamda asarga munosabat aks etishi, kinooperatorlar uslubiy o‘ziga xosligining namoyon bo‘lishi kabi masalalarga e’tibor qaratilgan.

2.90-yillar operatorlikning multiekspozitsiya, zoom linzalar (transfokator), stop-frame, rejimli syomka, vaqt birligi elementlari badiiy jarayonlar takomiliga xizmat qildi. Janr bo‘yicha yondashuv, bir kadrlilik usul, murakkab operatorlik mezosensasi, dekoratsiyada yorug‘likni qo‘llash, greyfer mexanizmli kamerada suratga olish kabilar tasvirda fikrni aks ettirishda yetakchilik qildi. Suv ichida tasvirga olish, yorug‘lik(kunduzda tun efekti, natura yoritish, rejimli yoritish), uzoq umumiy plan, kinokompozitsiya, ekshn operator (ommaviy sahna, jang dinamikasi) kabi vositalar yordamida vizual til namoyon bo‘ldi.

3.A.Ismoilov rakurs (suratga olish nuqtasi), nur va soyada qayg‘u, transfokator, planlar, portretni qurish, H.Fayziyev milliy kolorit detallari tasviriy yechim, kadr kompozitsiyasi to‘ldirilishi, epizod yaratilishidagi yondashuv, epizod metodik kompozitsiyasining ishlanishi kabi ifoda vositalari kino badiiy tilini boyitdi.

4.2000-2005-yillar operatorlik san’atida an’analarga vorisiylik yorug‘lik, rang vositalaridan foydalanish hamda tasvirga olish texnologiyasidagi o‘zgarishlarda o‘z

aksini topdi. Jumladan, Rembrandcha yoritishdagi yangi tamoyillar; Karavadjoga xos tasviriy yechim, kadrlarni yoritish usullari, ranglarning qo'llanilishi, kadr kompozitsiyasidagi predmetlar joylashuvi masalalari yaratilgan filmlarda o'z aksini topdi. Kinoplyonka imkoniyatlaridan foydalanishda Kodak (pavilon), Fuji (natura), ISO (yorug'lik sezgirligi) 250, rang harorati 3200K, 5300K, 32 mmli kabi qulayliklar yangi tamoyillarni yaratilishiga xizmat qildi.

5.2005-2010-yillarda operator va kamera birligi, yovvoyi zerno plyonkaning noyob jozibasi, estetikasi ifoda vositalari qamrovini kengaytirdi. Yumshoq yorug'lik, aktyorlarning joylashish tartibi va harakat yo'nalishlarini belgilash, dinamik kadr, jang sahnalari, kadr ichi montaj kabi tasviriy yechim vositalari kino badiiy tilini boyitishga xizmat qildi.

6.Sanoatning o'zbek kinosiga kirib kelishi, oddiy tomosha voqealarni suratga olinishi, uning badiiy kino turiga kirishi kuchaydi. Buning ortidan vizuallashtirish tarkibiy qismlarida ko'plab kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar kelgusi 2020-yillarda syujetga munosabatni tasvirda ifodalash mas'uliyati kuchayishiga sabab bo'ldi.

7.2010-2015-yillarda adabiyot va kino san'ati munosabatlari yanada mustahkamlanib, yozuvchi badiiy xayoloti, kechinmasi tasvirga ko'chishiga alohida e'tibor qaratildi. Bu davrda operatorlik ishlarida maxsus effektlar imkoniyatidan foydalanish borasidagi izlanishlar yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi. Bu borada texnika taraqqiyoti, yangi dasturiy ta'minotning o'zlashtirilishi yetakchi omil bo'ldi.

8.2015-2020-yillarda o'zbek operatorlik ijodida qo'lda suratga olish, subyektiv kamera, bir kadrlilik kabi ilgari mavjud bo'lgan usullar yangi uslubiy izlanishlar bilan boyitilib, qahramon portretini yangi badiiy-estetik shaklda tasvirlashtamoyilini yuzaga keltirgani bilan ahamiyatlidir. Bu izlanishlar tomoshabinni ekranda sodir bo'layotgan voqealarga ruhan yaqinlashtirib, jarayonni yonma-yon kuzatish, birinchi shaxs nigohidan ko'rish imkoniyatini yaratadi. Kinoning badiiy tili va vositalari taraqqiyotida 2000-yillar operatorlik san'atining ahamiyatlilik jihatida mana shunda.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ УЧЕНОГО СОВЕТА PHD
№.08/28.08.2020.SAN.121.01 ПРИ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ
ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ
УЗБЕКИСТАНА**

ДОСТОНОВ ОТАЖОН УКТАМ УГЛИ

**НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ОПЕРАТОРСКОГО ИСКУССТВА В
СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ КИНО
(2000-2020 гг.)**

17.00.03–Искусство кино. Телевидение

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ИСКУССТВОВЕДЕНИЮ**

Ташкент-2024

Тема докторской диссертации по искусствоведению зарегистрирована под номером B2017.2 PhD/28.08.2020.San18 в высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Государственном институте искусств и культуры Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.dsmi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Тожибоева Олтиной Косимовна**
доктор искусствоведения, профессор

Официальные оппоненты: **Корабоев Усмон Хосилович**
доктор философии, профессор

Исмаилов Камолитдин Саидахмадович
доктор философии (PhD) по искусствоведению

Ведущая организация: Институте искусствознания Академии наук Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится на разовом заседании Ученого совета при Государственном институте искусств и культуры Узбекистана под номером PhD/28.08.2020.San18...2024 в «.....» часов. (Адрес: 100164, город Ташкент, массив Ялангач, дом 127-а. Тел.: (99871) 230-28-15, 230-28-02; <http://www.dsmi.uz>; e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz)

Диссертацию можно найти в библиотеке Государственного института искусств и культуры Узбекистана. (Адрес: 100164, город Ташкент, массив Ялангач, дом 127-а. Тел.: (99871) 230-28-32. Электронная почта: uzdsmi@madaniyat.uz)

Автореферат диссертации был роздан "___", 2024 г. (Отчет цифрового реестра № ____ 2024 г.).

М.М.Юлдашев
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии, профессор

Д.М.Мулладжанов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней
кандидат искусствоведения, доцент

А.А.Умаров
Председатель научного семинара при на
Ученом совете по присуждению ученых
степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Современные технологии, которые стремительными темпами развиваются во всем мире, создают большие возможности для быстрого развития кинематографа, формируют пространство для фантазии кинематографистов при создании на экране различных сюжетных линий, персонажей и общего художественного решения. Тема и идея, сюжет и композиция художественного фильма отражены в визуальном решении, посредством современных средств выразительности. Художественное кино создает возможность для знакомства зрителей с историей, образом жизни, национальным культурным наследием, героями народа, способствует развитию его мировоззрения, а от оператора требует личного опыта, понимания жизни, наличие художественного вкуса, особенного видения, проницательности.

В литературе, посвящённой кинематографу, исследуются вопросы, связанные с формированием стиля при создании кино в разных странах, историей и теорией киноискусства, процессами и проблемами его развития, художественными особенностями. В этих исследованиях уделяется внимание таким вопросам, как создание портрета героя, образа художественного пространства, пластического и изобразительного решения, операторской манеры, выразительных средств, возможности различных современных технологий, в том числе компьютерной графики и уникальность полученных результатов, игра света и цветовое решение. Возникает необходимость проведения исследований по таким темам, как коммуникативные и интерактивные особенности художественного кино, жанрово-стилевая система, семантика образов.

В последние годы в нашей стране повышается роль национального кинематографа в жизни общества. Ведется работа по повышению уровня художественного кино, укреплению и развитию технических возможностей, которые создадут условия для вступления кинопродукции нашей страны в мировую киноиндустрию. «В будущем развитие системы кинематографии, наряду со всеми другими сферами, будет иметь приоритетное значение в нашей стране. В этой сфере смело внедряются демократические принципы, такие как свобода творчества, здоровая творческая конкуренция, неприкосновенность частной собственности. Укрепление материально-технической базы и

кадрового потенциала киностудий, предоставление им льгот и преференций, создание художественно зрелых картин, отвечающих запросам высокой вкусовой аудитории, популяризация киноискусства в нашем обществе выходят на новый уровень»²³. В связи с этим, помимо инструментария, методических исследований, творческих экспериментов в художественных фильмах, создаваемых молодым поколением кинематографистов, актуальное значение приобретает научное изучение процессов возникновения новых принципов при создании кино.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, поставленных решениями от 19 августа 2019 года № 695 «Об утверждении некоторых нормативных правовых актов в области кинематографии» и другими принятыми нормативными правовыми актами, касающимися данной деятельности. В частности, Указ Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПФ-158 «О внесении изменений в Закон Республики Узбекистан – 2030», № ПФ-6000 от 26 мая 2020 года «О мерах по дальнейшему повышению роли и влияния сферы культуры и искусства в жизни общества», № ПФ-6202 от 7 апреля 2021 года «О выводе киноискусства и индустрии на новый уровень, дальнейшей модернизации системы государственной поддержки отрасли», «О мерах по дальнейшему развитию национального кинематографа», ПП-3176 от 7 августа 2017 г., от 7 апреля 2021 года № ПП-5060 «О совершенствовании системы государственного управления в сфере кинематографии и создании достойных условий для творческой деятельности представителей отрасли», от 28 ноября 2018 года № ПП-4038 «О концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан».

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики Узбекистан. Исследовательская работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники Республики: 1. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Европейские и американские учёные

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivali ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 28 sentabr 2021 y.

